

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 37.018.1.37.06

XORIJ OLIMLARINING O'G'IL BOLALARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASH JARAYONIDA GENDER YONDASHUVNI TADBIQ ETISHGA DOIR FIKIRLARI**МНЕНИЯ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ О ПРИМЕНЕНИИ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ МАЛЬЧИКОВ К СЕМЕЙНЫМ ОТНОШЕНИЯМ****OPINIONS OF FOREIGN SCIENTISTS ON THE APPLICATION OF GENDER APPROACH IN THE PROCESS OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS****Aripov Shokirjon Olimovich** 

Farg'ona davlat universiteti p.f.b.f.d (PhD) Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayoni va gender yondashuvni tadbiq etish, pedagogik, psixologik, falsafaga oid tadqiqotlardan ma'lumki, oilaviy munosabatlarga oid dunyoqarashning asosiy qismi bolalikdan shakllanadi. Shu bois, oilada bola tarbiyasi jamiyatning dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammosi bo'lib qolmoqda. Oilada o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning mehnat tarbiyasiga undash muhitidir. Bugungi globallashuv davrida yoshlardan oila va nikoh munosabatlarida yuqori darajadagi axloq-odob va psixologik-pedagogik tayyorgarlik talab etiladi, shuning uchun ham o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashni dastlabki yillardan boshlash taqozo etiladi. Shunga ko'ra yosh avlodda barcha fazilatlarni tarkib toptirish va boshqarishning hislatlarini baholay olishga o'rgatish, ularni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy mohiyatini ifodalaydi.

Аннотация

В этой статье мы исследуем роль зарубежных ученых в процессе подготовки молодых людей к семейной жизни и гендерной идентичности, а также педагогические, психологические и философские последствия того факта, что семейная жизнь является неотъемлемой частью глобального общества. В то же время воспитание детей в семье становится все более важной социально-педагогической ценностью общества. Семья - это среда, в которой дети обучаются семейной жизни, а семья - это среда, в которой они поощряются к труду. В современную эпоху глобализации семьи и браки требуют высокого уровня нравственной и этической, психологической и педагогической подготовки, чтобы дети могли развивать сильное чувство принадлежности к семье. Таким образом, это основополагающий принцип восстановления чувства принадлежности и чувства принадлежности в молодом поколении, а также восстановления чувства принадлежности семье.

Annotation

In this article, we explore the role of foreign scholars in the process of preparing young people for family life and gender identity, as well as the pedagogical, psychological, and philosophical implications of the fact that family life is an essential part of the global society. At the same time, the education of children in the home is becoming a more important socio-pedagogical value of the society. The family is the environment in which children are trained for family life and the family is the environment in which they are encouraged to work. In today's age of globalization, families and marriages require a high level of moral and ethical and psychological and pedagogical training, so that children are encouraged to develop a strong sense of belonging to a family. Thus, it is a fundamental principle of re-establishing the sense of belonging and the sense of belonging in a young generation, and of re-establishing the sense of belonging in a family.

Kalit so'zlar: chet el olimlari, o'rta ta'lim, maktab, o'g'il bolalar, gender yondashuv, oilaviy munosabatlar, oilaga tayyorlash, oilaviy hayot.

Ключевые слова: о зарубежных ученых, среднее образование, образование, раннее детство, пол, семейные отношения, подготовка к семье, семейная жизнь

Keys words: about foreign scientists, secondary education, schooling, early childhood, gender, family relationships, preparation for family, family life

KIRISH

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda ularning gender tiplar haqidagi tasavvurlari aniq tarixiy davr uchun xosdir. Gender stereotiplar shaxsning yoshligidan boshlab, ijtimoiylashish jarayonida shakllanadi. Bunda jamiyatda qaror

topgan madaniy xulq-atvor me'yorlari, shaxslararo madaniy munosabatlar, urf-odatlar va muhit alohida ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy munosabatga tayyorlashda ijtimoiylashish mahsuli sifatida alohida o'g'il bolalarda ijtimoiy rollarni o'zlashtirish ko'nikmalari namoyon bo'ladi. Turli bosqichlarda ijtimoiylashish omili sifatida kiyimlar, so'z vositasida amalga oshirilgan murojaatlar, ota-onalarning talablari, o'yinchoqlar, xalq og'zaki ijodi va yozma badiiy adabiyot namunalari, radio, televideniya, kino, maktab ta'limi, tengdoshlari va sinfdoshlarining fikrlari, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni ko'rsatish mumkin.

Gender maskulinlik va feministlik rollarga bo'linadi. Gender rollar xotin-qizlar va erkaklarning o'ziga xosligini namoyon qiluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Turli davrlarda hamda turli madaniyatlarda gender rollarning namoyon bo'lishi uning madaniyat mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xovsted[143]ning ta'kidlashicha, gender rollardagi farqlar turli madaniyatlarda gender rollarning farqlanishi orqali namoyon bo'lib, ular muayyan madaniyatdagi maskulistik va feministik darajalar orqali ifodalanadi. Maskulistik madaniyatdagi shaxslar yutuqlarga erishishning yuqori motivasiyasiga ega bo'ladilar. Ular hayot mazmunini ko'plab ishlarni bajarish, doim band bo'lishda ko'radilar. Feministik madaniyatga mansub shaxslar esa, oilaviy hayot bilan ko'proq band bo'lib, o'zlari bajaradigan rollarda tenglikka erishishni istaydilar. Buni Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya kabi davlatlarning fuqarolari misolida ko'rish mumkin.

Xovsted[143]ning fikriga ko'ra, erkaklik – bu milliy madaniyatning atributi bo'lib, u ijtimoiy qadriyatlarining qat'iyatlilik (ishonch) va materializm bilan tavsiflanadigan darajasini ifodalaydi[143, 39-b.].

Ayollik esa, milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, boshqalarga nisbatan munosabat va e'tibor darajasini namoyon qiladi.

Erkaklar xotin-qizlar va erkaklarning ijtimoiy rollari sezilarli darajada farqlanadigan jamiyatlarda etakchi kuch hisoblanadi. Aksincha, xotin-qizlar bilan erkaklarning ijtimoiy rollari teng bo'lgan jamiyatlarda ayollikka ustuvor o'rin ajratilib, ular qadriyatlar tizimida hayot sifati etakchi o'rin egallab, atrofdagilar bilan ijobiy munosabat tajribasi hosil bo'ladi, ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustivorlik qiladi.

Aql-idrok va xayrixohlik qadrlanadi, intellektual rivojlanish jadallashadi. Qulaylikka ustivor o'rin ajratiladi. Uydagi va oiladagi qadriyatlar ishdagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda maskulinlik va feministlik asosiy faoliyat uslubi sifatida gender olamning manzarasini ifodalaydi. Maskulinlik va feministlik omillarining ajratilishida biologik va ijtimoiy jinsdagi farqlar etakchi o'rin egallaydi. Oilaviy munosabatlarda jinslarning farqlanishi tabiiy hamda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy rivojlanish ko'rsatkichidir. U o'zining maqsadga yo'naltirilgan funksiyalariga ega.

Oilaviy munosabatlarda erkaklar va ayollar rollarining tarixiy jihatdan farqlanishi o'ta chuqur omil hisoblanib, har ikkala jinsning muhim jihatlari va obrazini ommalashtirishga xizmat qiladi.

O'g'il va qiz bolalarga madaniyatning ta'siri umumiy madaniyatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu gender madaniyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha murakkab xarakterga ega bo'lib, o'z tarkibiga iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ta'limiy, maishiy, tarixiy va ko'plab yo'nalishlarni mujassamlashtiradi.

Oilaviy munosabatlarga oid tasavvurlar, o'g'il va qiz bolalarga xos madaniyat, asosan, ta'lim jarayonida shakllanadi. U o'g'il va qiz bolalarning o'ziga xos ijtimoiylashishiga zamin yaratadi. Ta'lim jarayonida o'g'il va qiz bolalarga xos bo'lgan ijtimoiylashish jarayoni tizimli tarzda amalga oshadi.

Madaniy boyliklarni egallashda o'g'il va qiz bolalar orasidagi o'zaro munosabatlarni tizimlashtirish alohida ahamiyatga ega. O'g'il va qiz bolalarning har birida gender madaniyatni shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va jamiyat madaniy hayotini barqarorlashtirish uchun alohida ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, patriarxal jamiyatda erkaklarning mavqei kengayib, ularga xos madaniyat va madaniy stereotiplar shakllangan. Antik davrlarda gender masalalariga ilk bor Aristotel va Platon murojaat qilgan. Oldingi paragraflarda ta'kidlanganidek, Platon o'g'il va

qiz bolalarning birgalikda ta'lim olishlarini yoqlab chiqqan. Aristotel esa o'g'il va qiz bolalarga alohida-alohida ta'lim berish zarurligi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi haqidagi qat'iy xulosaga kelgan.

O'rta asrlar Islom madaniyatida o'g'il bolalarga kuch-qudrat egasi, mardlik, jasorat timsoli, Vatanni mudofaa qiluvchi shaxs sifatida qaralgan.

G'arbda ham XVIII-XIX asrlarda o'g'il bolalarga ta'lim berish borasidagi fikrlar o'zgarib, yangicha munosabat vujudga kelgan. Jumladan, Jan Jak Russo[156] o'g'il va qiz bolalarga bir xil sharoitlarda ta'lim berish g'oyasini yoqlab, o'g'il bolalarda mardlik, to'g'riso'zlik, qat'iyatlilik, vijdonlilik sifatleri, qizlarda esa uyatchanlik, nazokatlilik, ziyraklilik sifatleri tarkib toptirilishi lozim, – deb hisoblaydi. Djon Lokk[165] esa o'quvchilarni uy sharoitida maxsus tayyorlangan tarbiyachi nazorati ostida o'qitish lozimligini ta'kidlaydi. U o'g'il bolalarda xaqiqiy djentelmenlik sifatlarini shakllantirish uchun xorijiy tillar, geografiya, matematika, falsafa kabi o'quv fanlarini o'qitish, qizlarga esa raqs, musiqa, san'atdan saboq berish zarurligini uqtiradi.

K.Gelvesiy[158] esa ta'lim olishda o'g'il va qiz bolalarning teng huquqli ekanliklarini e'tirof etadi. Yan Amos Komenskiy[159] o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitish tarafdori bo'lib, ularga alohida-alohida ta'lim berish uchun xech qanday asos mavjud emasligini ta'kidlagan. I.G.Pestalossi[85] ham turli jinsga mansub o'quvchilarni alohida-alohida o'qitish g'oyasini tanqid qilib, ularga birgalikda ta'lim berishni yoqlagan.

Ko'plab pedagoglar, psixologlar, sosiologlarning ta'kidlashlaricha, o'g'il va qiz bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda jinsga xos muayyan xatti-harakatlar bilan bog'liq. Jumladan, globallashuv, jamiyatda gibrad madaniyatning tobora keng ko'lam kasb etayotganligi o'g'il va qiz bolalarning xatti-harakatlaridagi jinsga xos nomutanosiblikning vujudga kelishiga asos bo'lmoqda. Natijada genderni ijtimoiy konstruksiyalash tushunchasi vujudga keldi.

Genderning ijtimoiy konstruksiyasi shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida vujudga keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gender stereotip va rollar o'zgaruvchan xarakterga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender rollar turli tarixiy sharoitlarda turli madaniyatlar ta'siri ostida o'zgaradi. Chunonchi, M.Mid[160] xam o'g'il va qiz bolalarning rollari muayyan jamiyatdagi ijtimoiy voqelik bilan bog'liq holda o'zgarishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta'biricha, har bir jinsga xos bo'lgan rollar tabiiy tarzda shakllanadi. Ushbu shakllanish ijtimoiy madaniy omillar yordamida jadallashadi.

Taniqli olimlar N.Smelzer[166] va E.Giddens[38]larning ushbu yo'nalishdagi ishlari xam muammoning nazariy talqinini yaratishda alohida ahamiyat kasb etgan. Ular shaxsning jinsiga ko'ra, ijtimoiy rollarini belgilashning fundamental asoslarini yaratganlar.

Har bir jamiyatda mavjud bo'lgan oilaviy munosabatlar tajribasi shaxsning gender rollarini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Smelzer[166]ning ta'kidlashicha, ayollar va erkaklarning jamiyatdagi rollari muntazam o'zgarib turadi va ushbu tendensiya saqlanib turadi. Shu bilan bir qatorda mutaxassis gender rollarni faollashtirish usullari va yo'llarini ham ko'rsatib o'tadi.

Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash maqsadida genderga xos madaniy dunyoqarash, ijtimoiy voqelik haqida aniq tasavvur hosil qilish talab qilinadi. Oilaviy munosabatlardagi gender rollar jamiyatdagi muammolar bilan bog'liq holda shakllanadi va o'zaro muvofiqlashadi. Agar jamiyatdagi tizim o'zgarsa, gender bajaradigan rollarda ham o'zgarishlar vujudga keladi. Rollardagi nomutanosibliklar oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning farzand tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatni to'g'ri taqsimlamaganliklari bilan ham izohlanadi.

Globalashuv jarayonida ayrim hollarda qizlarda o'g'il bolalarga xos, o'g'il bolalarda qizlarga xos qadriyatlar etakchilik qilmoqda. Bugungi kunda gender madaniyati shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilamoqda. Bunday munosabatlar ikki tomonlama xarakter kasb etmoqda. Ijtimoiy mavqeidagi o'zgarishlar oilaviy munosabatlar tizimiga xam ta'sir ko'rsatmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda gender tiplar madaniy hodisalar bilan aloqadordir. Gender tiplar nafaqat jamiyatda balki madaniy hodisalar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Gender munosabatlar doirasida o'smir yoshdagi o'g'il bolalar qiyofasida quyidagilar namoyon bo'lmoqda: qo'rslik, xudbinlik, itoatsizlik, mustaqil fikriga ega emaslik, salbiy his-tuyg'ularga moyillik, meshchanlik, boqimandalik, dabdabaga o'chlik, ijtimoiy tarmoqlarga

PEDAGOGIKA

bog'lanib qolish, tajovuzkor o'yinlarni o'ynashga moyillik, kitob o'qimaslik, dabdabaviy hayot orqasidan quvish, ShOU-biznes vakillariga taqlid qilish kabilar.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolish holatlari eng ko'p uchraydigan hodisalardan biri hisoblanib, o'smir yoshdagi o'g'il bolalarning oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini zaxarlamogda. Ularning xarakterida tajovuzkorlikning ustivorligini ta'minlashga xizmat qilmogda. Aksariyat o'smir yoshdagi o'g'il bolalar kelajakda an'anaviy oila qurishga qarshi bo'lmoqdalar. Ularning aksariyati oilaviy hayotda bajaradigan rollarini aniq tushunmayaptilar yoki buni eskilik sarqiti sifatida baholaydilar. Erkin oilaviy hayot g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi o'smirlar guruhi shakllanmogda. Bu esa kelajakda oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlarning qadrsizlanishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda ota-ona va farzandlar orasidagi ziddiyatlarning aksariyati o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalar ishtirokida vujudga kelmogda. O'smir yoshdagi o'g'il bolalar xatti-harakatlarida o'zbekona qadriyatlarning o'rni tobora kamayib bormogda.

Oilaviy munosabatlarga tayyorlash nuqtai nazaridan yondashganda qiz bolalar bilan o'g'il bolalarning mavqei teng bo'lgani holda ularning har biri gender o'ziga xosligini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bunday yondashuv ularning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Aks holda o'g'il va qiz bolalar orasida ziddiyatlar vujudga keladi. Mentalitetga xos stereotiplar shakllanmay qoladi. Shu bilan bir qatorda o'g'il va qiz bolalarda jinsga xos rollarning taqsimlanishi murakkablashadi. O'g'il va qiz bolalarda oilaviy munosabatlarga xos bo'lgan dunyoqarash va rollarning shakllanishi natijasida ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi amalga oshib, jamiyatdagi mavqei ortadi.

XULOSA

Bugungi kunda "Ommaviy madaniyat" o'g'il va qiz bolalar orasidagi ijtimoiy-madaniy farqlarni inkor qilib kelmogda[97]. Oilaviy munosabatlarda ham milliy madaniyat va mentalitetga xos bo'lmagan stereotiplarni targ'ib qilmogda. Masalan, kosmopolitizm, bir jinslilarning nikohi, akselerasiya, liboslar va soch turmaklaridagi farqlarning yo'qolib borayotganligi, an'analar va urf-odatlariga eskilik sarqiti sifatida qarash, oilani qadriyat sifatida baholamaslik kabilar shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hofstede G. Masculinity and Femininity: The taboo dimension of national cultures, 1998. SAGE Publications Inc. 238 p. [143]
2. https://pikabu.ru/story/sotsialnaya_filosofiya_xviii_veka_zhazhak_russo_65440 [156]
3. <https://www.art-talant.org/publikacii/31348-dghon-lokk-teoriya-vospitaniya-dghentlymena> [165]
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Гелвеций,_Клод_Адриан [158]
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Коменский,_Ян_Амос (159)
6. Педагогическая система И.Г. Песталоцци: библиографический указатель / Сост. С.Ф. Локтева; КГУ. Курск: КГУ, 2016. 19 с. [85]
7. https://www.yaneuch.ru/cat_08/gendernye-stereotipy-n-smjelzer/9817.579399.page1.html [166]
8. Гидденс Энтони. Социология. 1999 -704с. [38]
9. Tojiboyeva X.M. "Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari" // Monografiya. – Toshkent: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2021. – 208 bet. [97].
10. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). The pedagogical system of preparing boys for family relationships in general secondary schools. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).
11. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. Academic research in educational sciences, 3(1), 68-75.
12. Арипов, С. О. (2020). Socio-psychological role and significance of the family in preparing children. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).